

INGLIZ TILIDAGI “FOOT” LEKSEMASI ISHTIROKIDAGI SOMATISM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LISONIY LINGVOKULTROLOGIK JIHATLARINI O‘ZBEK TILIDAGI TALQINI

Andijon davlat chet tillar instituti magistranti

Niyozova Mashhura Usmonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “foot” leksemasi ishtirokidagi somatizm komponentli frazeologik birliklarning o‘zbek va ingliz tilidagi tarjimasi hamda ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari keltirilgan. Ularning ingliz badiiy adabiyotlarda qo‘llanilgan holatidan namunalar keltirilgan. Ushbu frazeologik birliklarning mavzu jihatidan xilma-xil, rang-barang va badiiy jihatdan ham mukammaldir. Hamda bu maqolada “somatism” so‘ziga lug‘aviy va lingvistik tasnif keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Somatizm, foot, xalq, frazeologik birlik, urf–odatlar.*

Abstract: *This article presents the Uzbek and English translation of phraseological units with somatism component including the lexeme "foot" and their Uzbek equivalents. Examples of their use in English fiction are given. These phraseological units are thematically diverse, colorful and artistically perfect. Also, a lexical and linguistic classification of the phrase "somatism" is presented.*

Key words: *Somatism, foot, nation, phraseological unit, traditions*

Аннотация: *В данной статье представлен узбекский и английский перевод фразеологизмов с компонентом соматизма, в том числе лексем «нога» и их узбекских эквивалентов. Приведены примеры их использования в англоязычной художественной литературе. Эти фразеологизмы тематически разнообразны, красочны и художественно совершенны. Также представлена лексико-лингвистическая классификация словосочетания «соматизм».*

Ключевые слова: *соматизм, стопа, народ, фразеологизм, традиции.*

KIRISH

Frazeologik birliklar nutqda qo‘llaniluvchi o‘zgarmas birikma sanalib unda xalqning hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g‘am-anduhi, rohat-farog‘ati, muvaffaqiyat va mag‘lubiyati natijasida xosil bolgan. Bunday birikmalar tilda tayyor holatda bo‘lib tilning jozibasini, ta’sirchanligini oshirishda xizmat qiladi. Shuningdek, frazeologik birliklar har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlar va an‘analarida o‘z aksini topgan bo‘ladi.

“Somatism “so‘zi ingliz tili “Collins English Dictionary”da “materialism” so‘zi bilan sinonim sifatida keltirilgan va quyidagi ma’nolarni anglatadi;

1. “Interest in and desire for money, possessions, etc, rather than spiritual or ethical values” ya’ni “ma’naviy va madaniy qadriyatlardan ko‘ra pul va boylikka bo‘lgan ishtiyoq” deb keltirilgan.

2. Falsafada “the monist doctrine that matter is the only reality and that the mind, the emotions, etc, are merely functions of it” ya’ni “monistik ta’limot: materiya yagona voqelik va aql, his-tuyg’ular va hokazolar faqat uning funktsiyalari” deb tushiniladi.

Lingvistikada esa somatizm so’zi grekchadan olingan bo’lib, ”soma” - “tana” ma’nosini anglatadi. Jahondagi ko’pchilik tillar maqollarinig asosiy qismini somatik birliklar tashkil etadi. Oxirgi yillarda somatik birliklar ishtirok etgan maqollar va iboralar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo’lib kelmoqda. Ular shu xalq dunyo qarashini, dinini, urf-odatini, yashash tarzi va tarixini o’zida mujassamlashtiradi. Quyida biz “foot” so’zi ishtirokidagi somatik birliklarni keltirib o’tamiz.

Foot in the door- to start to succeed -muvoffaqiyatga yo’l

Don't let Jane get her foot in the door by joining the club or soon she'll want to be president. Jeynni klubga a’zo bo’lish orqali ko’tarilishiga imkon bermaslik kerak, u tez orada klub prezidenti bo’lishni hohlab qoladi. Ushbu ibora o’zbek tilida “burni ko’tarilib ketmoq yoki ko’tarilmoq” iborasi bilan bir xil ma’no ifodaaydi. Grammatik jixatidan ibora gapda fe’lli birikma bo’lib kelib kesim vazifasida qo’llanilmoqda.

Foot the bill – cover the expenses -harajatlarni qoplamoq

The Bride’ father footed two –thirds of the bill for his daughter’s wedding.

Tarjimada “Kelinning otasi qizining to’yiga ketgan harajatlarni uchdan ikki qismini qoplatadi” deb tarjima qilinadi. Bunda “foot” so’zi birikmada fe’l vazifasida kelib, zamonlarda tuslanib qo’llanilishi mumkin.

To have a lead foot – drive very fast-o’ta tez moshina xaydamoq

O’zbek tilidagi ekvivalenti “O’pkasini qo’ltig’lab mashina xaydadi”

My friend has a lead foot and he has received many speeding tickets.

Gapni tarjimada “Mening do’stim o’pkasini qo’ltig’iga olib mashinani haydadi va tezlik oshirgani tufayli ko’plab jarima varaqalari oldi” deb keladi. “Foot” so’zi morfologik vazifasiga kora ot so’z turkimida qo’llanib, gapda to’ldiruvchi vazifasida kelgan hamda tezlikni ifodalash uchun qo’llanmoqda.

Footloose and fancy-free- to be without responsibilities or commitments.

O’zbek tilidagi ekvivalenti “Dunyoni suv bossa o’rdakka ne g’am.”

The couple were footloose and fancy-free and they could do whatever they wanted.

“Bu juflik uchun dunyoni suv bossa ham g’ami yo’q va ular ko’ngliga ne kelsa shuni qilishardi” Bu ibora ma’suliyatsizlikni ifodalash uchun qo’llaniladi va bunda “foot” leksemasi qo’shma otning bir qismi bo’lib iborada sifat so’z turkimiga xos so’z ornida qo’llanilib aniqlovchi vazifasini bajaradi.

To have a foot in both camps- to support each of two opposing groups of people.

The new mayor has a foot in both camps of the development dispute.- Yangi xokim bu muammoni ikki tamonini ham ko’rib chiqdi. Ushbu gapda birikmada keltirilgan so’zlar umuman o’zlarining anglatgan leksik ma’nosida tubdan farq qiluvchi ma’noni ifodalab, gapda kesim vazifasida qo’llanmoqda.

Have one foot in the grave- to be near death

O’zbek tilidagi ekvivalenti “Bir oyog’i go’rda yoki bir oyog’ini go’r tortib qolgan”

Although man has one foot in the grave he never stops complaining about policy of the authorities.- Bu odamni bir oyog'ini go'r tortib qolgan bo'lsada u hech ham hokimiyat yuritayotgan siyosatdan rozi bo'lmas edi.

Bu somatizm birikmali ibora asosan negativ goyani ifodalab, "yoshi bir joyga borgan" deb tarjima qilinishi ham mumkin va "foot" leksemasi grammatik jihatidan ot so'z turkimi bo'lib qo'llanilgan.

Off on the wrong foot -to start smth under bad circumstances.

O'zbek tilidagi ekvivalenti "To'nini teskari kiymoq"

I tried to talk my new neighbor but it seems that we are off on the wrong foot

already.- "Men qo'shnim bilan suhbatlashishga urindim lekin u allaqachon to'nini teskari kiyib olgan edi" Ibora munosabatlar yomonlashganini ifodalash uchun qo'llanadi va gapda ot kesimning bir qismi sifatida foydalanilgan.

Put one's foot down-to object to smth, to take firm action.

O'zbek tilidagi ekvivalenti "Haq deb turib oldi yoki oyoq tirab turib olmoq"

Our boss put his foot down and did not allow any more money to be spent on entertainment.- Bizning rahbar qat'iy turdi (yoki oyoq tirab turib oldi) va o'yin-kulgu uchun ortiqcha pul sarflashga yo' qoymadi. Ushbu holda birikma qat'iy norozilikni ifodalab, qisman oyoq so'zining o'z ma'nosida tarjima qilinadi lekin tana a'zosining harakatini ifodalamay insonning xis tuygusiga ishora qilinadi.

Wait on hand and foot- to serve someone in every possible way, to do everything for someone. O'zbek tildagi ekvivalenti "Paxta qo'ymoq"

He regularly waited on hand and foot to his boss as a result he was soon promoted. U rahbariga muntazam ravishda mulozamat ko'rsatdi (paxta qo'ydi) va natijada tez orada mavqei oshdi. "Wait on hand and foot" iborasi – og'zki nutqda "paxta qo'ymoq" deb tarjima qilinishi mumkin va

Shoe is on the other foot- the opposite is true, someone's place or situation is changed into else's place or situation. O'zbek tilidagi ekvivalenti "Dunyo charxpalakdir".

My friend always has problems at school but now the shoe is on the other foot and I am the one who is having problems.- Mening do'stim maktabda doim muammolar girdobida yurar edi, hayot charxpalak, hozirda esa muammolar ostida qolgan menman. Ushbu ibora kirish so'z sifatida foydalanilishi mumkin, ma'nosida esa qarama-qarshilikni ifodalaydi.

Shoot oneself in the foot- to make a mistake or stupid decision that makes a situation worse. O'zbek tilidagi ekvivalenti "O'z oyog'iga bolta urmoq."

The man shot himself in the foot when he refused to work extra to help his boss the new project. – Bu kishi o'z oyog'iga bolta urib, yangi loyiha bo'yicha rahbariga yordam berib qo'shimcha ishlash fikrini rad etdi. Bu frazeologik birikmada "foot" leksemasi fe'lli birikmaning qismi sifatida keltirilgan, o'zi uchun mavjud imkoniyatdan foydalanmaslik ma'nosini ifodalaydi.

Ushbu quyida keltirilgan misol ingliz badiiy adabiyotidan olingan bo'lib, iboralarni qo'llash asar jozibadorligini oshirishda, uni xalqqa oson yetib borishini ta'minlashda ko'makchi vazifasini o'tashini yaqqol misolidir.

"Harry Potter and prisoners of Azkaban" by J.K.Rowling

“Diggory’s put a very strong side together! He’s an excellent Seeker! I was afraid you’d take it like this! We mustn’t relax! We must keep our focus! Slytherin are trying to wrong-foot us! We must win!”

Asardan keltirilgan parchada wrong foot us iborasi o‘zbek tilida “qarshi bo‘lib qolmoq yoki to‘nini teskari kiymoq ” iboralari bilan bir xil ma‘no anglatadi

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki maqolada keltirilgan somatism komponentli birikmalar insoniyatning asrlar mobaynidagi hayoti ularning boshidan o‘tgan yaxshi yomon kunlar natijasi o‘laroq, oxshatishlar orqali paydo bo‘lgan. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek bu iboralar asosan og‘zaki nutqda keng qo‘llanilib xalq orasida asosiy muloqot vositalaridan hisoblanadi. Insoniyat yaratilibdiki jamiyatda yashayotgan insonlar har jabhada o‘zlari uchun eng qulay va eng maqbul usul orqali aloqada bo‘ladilar va ushbu o‘zgarmas komponentli birikmalar ham asrlar davomida sayqallanib xalq orasida tildan tilga o‘tib saqlanib kelinmoqda. Bundan tashqari ushbu iboralar badiiy asarlarning ham bezak beruvchi hamda xalqni ko‘nglida tez joy olishiga sabab bo‘lguvchi omil sifatida ta’kidlanadi. Ingliz tilida va o‘zbek tilidagdi sanab o‘tilgan yuqoridagi namunalardan ikki tilda uchratishimiz mumkin bo‘lgan ularning ekvivalenti mavjudligidan hulosa chiqarishimiz mumkinki til tuganmas boylikdir .

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2002. 164 b 6. Gaybullaevna, N. M. (2021)
2. Eco, Semiotics: Discipline or Interdisciplinary method? Sight, Sound and Sense/ ed. by Thomas A. Sebeok. Bloomington : India University Press, 1978.
3. Horijiy til leksik birliklarni tanlash mezonlari. Toshkent 2021 Ochilova Vazirakhon Rustamovna.
4. Somatik leksikaning hususiyatlari. Buhoro .2021. Mavlyuda Ibragimovna Gadoyeva.
5. Harry Potter and Prisoner of Azkaban. London. 1999 J.K.Rowling.
6. Leksik tushunchalar tizimi haqida ma’lumot. 2021/Parvina Abdumalik qizi Xoliqova
7. collinsdictionary.com
8. www.google .uz
9. www.edu.uz
10. www.scientific progress.uz